SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-maxsus son (5-jild)

2025

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V5SI5Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/5 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY’ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O‘zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori, O‘zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o‘g‘li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo‘limi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O‘ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg‘ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo‘raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G‘aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, “Tashkent International University of Education” xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo‘min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O‘roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko‘chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G‘aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), Oʻzbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom oʻgʻli — yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot boʻlimi psixologik xizmat boshligʻi.

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Poʻlatovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Boʻtayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

**OAK Roʻyxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari boʻyicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar roʻyxatiga kiritilgan.

---

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 5- maxsus son (Iyun, 2025). - 302 bet.

**MUNDARIJA**

## 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Abdullaev Ulugʻbek Saydanovich*
OʻRTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR ........ 10-14

*Shukurillayev Yunus Asrorovich*
BUXORO AMIRLIGIDA CHEGARALARNI QOʻRIQLASH, QOROVULLIKNI OʻTASH VA XAVFSIZLIKNI TAʼMINLASH MASALALARI TAHLILI ........ 15-19

*Рахманкулова Адолат Хушбаковна*
ИСТОРИЯ ГРЕЧЕСКОЙ ДИАСПОРЫ УЗБЕКИСТАНА: СПЕЦПЕРЕСЕЛЕНЦЫ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ЭМИГРАНТЫ ........ 20-25

*Xusanov Xabibullo Xakimovich*
OʻZBEKISTON MILLATLARARO MUNOSABATLARIDAGI ZIDDIYATLI VAZIYAT VA MILLIY MADANIY MARKAZLARNING TASHKIL QILINISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI ........ 26-30

*Toshov Kamoliddin, Xurramova Sabrina Abdurashidovna*
THE PROBLEM OF CHILD NEGLECT DURING THE SECOND WORLD WAR ........ 31-38

*Atamuratova Dilafruz Rashidovna*
THE FORMATION OF THE PRESS OF THE KhPSR AND THE ESSENCE OF SOCIAL PROBLEMS IN IT........ 39-42

*Nazirov Baxtiyor, Moʻminov Nodirbek Botir oʻgʻli*
IMOMQULIXON DAVRI ASHTARXONIYLAR DAVLATINING IJTIMOIY-IQTISODIY VA HARBIY-SIYOSIY HAYOTI ........ 43-48

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Исламутдинов Вадим*
СОСТОЯНИЕ И НАПРАВЛЕНИЯ СНИЖЕНИЯ БЕДНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ........ 49-54

*Melibaeva Gulxon Nazrullayevna*
BENCHMARKING KICHIK INNOVATSION BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA SAMARALI VOSITASI SIFATIDA........ 55-65

*Ульмас Ибрагимов*
ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОЙ МОДЕЛИ МАЛОГО БИЗНЕСА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ........ 66-75

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Salomova Hakima Yusupovna*
MEʼYOR KATEGORIYASINING BIOSFERANI ASRASHDAGI AMALIY AHAMIYATI ........ 76-83

*Djumaniyozova Dilfuza, Ibraximova Dilorom*
YURIDIK TAʼLIM VA YURIDIK KLINIKA FAOLIYATIDA AXLOQIY TARBIYA........ 84-90

*Djoʻraev Anvar Muxamadiyevich*
IJTIMOIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI ........ 91-96

*Каримова Гулчехра Самадовна*
ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАДЕРЖКИ ПОЛОВОГО РАЗВИТИЯ У ПОДРОСТКОВ: МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ СИНТЕЗ МЕДИЦИНСКИХ ДАННЫХ И АНТРОПОЛОГО-ЭТИЧЕСКИХ ........ 97-101

*Гайбуллаев Жавлон Шавкатович*
ДЫХАНИЕ КАК ЗЕРКАЛО ДЕТСТВА: ФИЛОСОФСКИЙ ВЗГЛЯД НА РЕЦИДИВИРУЮЩИЕ РЕСПИРАТОРНЫЕ ИНФЕКЦИИ ........ 102-105

*Yusupaliyev Orzimurod Odilovich*
YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI ........ 106-110

*Taylyakova Feruzaxon Sultanovna*
OʻZBEKISTONDA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI ........ 111-116

*Yusupova Ranoxon Tolibjonovna*
TEXNIK TARAQQIYOT AXLOQIY-STRATEGIK RESURS SIFATIDA ........ 117-120

*Yarashov Sarvar Norqul oʻgʻli*
SHAXSNING SHAKLLANISHIGA AXLOQIY IDEALLAR VA JAMIYATDA MAVJUD QADRIYATLARNING TAʻSIRI ........ 121-125

*Shokirov Toxirjon, Maxmudov Shoxrux*
ZARDUSHTIYLIK DININING VUJUDGA KELISHI VA UNDA MADANIYAT VA SAN’AT FALSAFASI ........ 126-130

*Ахмедова Дилбар, Шавкатова Ширин*
ПЕРВЫЕ ШАГИ В МИКРОМИРЕ: ФИЛОСОФСКИЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ДИСБИОЗЕ И АЛЛЕРГИИ У МЛАДЕНЦЕВ ........ 131-135

*Kurbanbaeva Ulbosin Jumagʻalievna*
EKOLOGIK TARBIYANING GUMANISTIK MOHIYATI ........ 136-139

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Miqumova Dilafruz*
IRFONIY SAYRU SULUKNING JA’FAR MUHAMMAD TERMIZIY SHE’RIYATIDAGI MODERNISTIK TASVIRI VA TALQINI ........ 140-147

*Xoʻjamqulov Anvar, Togʻayeva Shoxnoza*
TAXAYYUL OLAMI TAHLILLARI ........ 148-159

*Murodova Iroda, Khamidov Tokhirjon*
ANALYSIS OF THE LINGUOCOGNITIVE ASPECT OF THE SEMANTICS OF METAPHORICAL INNOVATIONS ........ 160-163

*Mamatova Feruza Maxammadovna*
FENOMENOLOGIYA, FENOMEN VA ULARNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI ........ 164-168

*Burxonova Gulmira Olimjon qizi*
TURLI TIZIMLI TILLARDA SOTSIOMADANIY BIRLIKLAR SHAKLLANISHINING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TASNIFI ........ 169-172

*Berdiqulova Shaxnoza, Ruzmatova Gulnara*
BOGʻLOVCHILAR VA TINISH BELGILARINING PRAGMATIK KUCHI: OʻZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA ........ 173-177

*Musurmonova Barchinoy Hasan qizi*
FORS MATNSHUNOSLIGI TARAQQIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI ........ 178-182

*Яркулова Фотима Усмановна*
ОДНОРОДНЫЕ ЧЛЕНЫ ПРЕДЛОЖЕНИЙ ........ 183-186

*Jo'raqulova Rayhon Xolboyevna*
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LEKSIK BIRLIKLAR OBRAZ VA RAMZLARNI YUZAGA KELTIRUVCHI VOSITALAR ........ 187-190

*Musoeva Hayitgul Urokovna*
THE LINGUO-STYLISTIC ANALYSIS OF THE WORD “HEART” IN ENGLISH LANGUAGE BASED ON THE NOVEL “PRIDE AND PREJUDICE” ........ 191-195

*Yuldasheva Kamola*
SINXRON TARJIMA JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN PSIXOFIZIOLOGIK STRATEGIYALAR ........ 196-202

*Matkarimova Malika Oybek qizi*
HOW TO TEACH ENGLISH USING SIMPLE SCIENCE EXPERIMENTS ........ 203-206

Kamola Hatamova
HUJJATCHILIK TARAQQIYOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI ........ 207-210

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Uralov Sharof Urazaliyevich*
PROBATSIYA INSPEKTORLARIGA MA'MURIY BAYONNOMA TUZISH VAKOLATINI BERISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI ........ 211-216

*Mamatmurodov Farrux*
METHODS OF RESOLVING DISPUTES ARISING FROM ISLAMIC FINANCE SERVICES. INTERNATIONAL EXPERIENCE ........ 217-222

*Муталипова Лола Фархадовна*
СМАРТ-КОНТРАКТЫ И БЛОКЧЕЙН: ВЫЗОВЫ ДЛЯ ДОГОВОРНОГО ПРАВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ........ 223-234

*Нормуродова Азиза Азимжон кизи*
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СЕКСУАЛЬНОГО НАСИЛИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ . 235-241

*Abdullayeva Parvina Baxrilloyevna*
RAQAMLI PLATFORMALARDAGI BANDLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ........ 242-246

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Ismaylov Azerbay Saparniyazovich*
RAQAMI IQTISODIYOT SHAROITIDA QORAQALPOQ XALQ AN'ANALARIDAGI MAVJUD PEDAGOGIK USULLAR TRANSFORMATSIYASI ........ 247-252

*Namozova Dilorom Tursunovna*
MUSIQA TA'LIMIDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI ........ 253-261

*Давыдова Руфина Артуровна*
РОЛЬ ГУМАННОЙ ПЕДАГОГИКИ В ПРЕОДОЛЕНИИ АГРЕССИИ И ОТЧУЖДЕНИЯ СРЕДИ ШКОЛЬНИКОВ ........ 262-266

*Gaziev Baxromjon Valievich*
OT SPORTIDA MALAKALI CHAVANDOZLARNI TAYYORLASH MUAMMOLARI ........ 267-273

*Toshtemirova Mohichehra G'olibjon qizi*
DIZAYN TA'LIMINING XALQARO TAJRIBASI:
O'QUV DASTURLARI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI ........................................ 274-279

*Rakhmonova Dilnura Saidovna*
TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING
KREATIV FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI:
AMALIYOT VA TAJRIBA ........................................................................................................ 280-286

*Yakubova Barno Baxtiyorovna*
MUSTAQIL VA IJODIY ISHLASH FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA
QARATILGAN MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH ................................................................ 287-290

*Rixsiboyev Behzod Alisherovich*
IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MADANIY PLYURALIZMNING O'RNI ........ 291-295

*Islamova Moxichexra Bekmurzayevna*
TALABLARNI TANQIDIY FIKRLASHGA UNDOVCHI O'QITUVCHI STRATEGIYALARI ..... 296-301

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Special Issue 5 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 2 June 2025
**Accepted:** 15 June 2025
**Published:** 30 June 2025

*Article / Original Paper*

# CONFLICT SITUATION IN INTERETHNIC RELATIONS IN UZBEKISTAN, THE ORGANIZATION OF NATIONAL CULTURAL CENTERS, AND THEIR HISTORICAL SIGNIFICANCE

**Khusunov Khabibullo Khakimovich**
Andijan State Institute of Foreign Languages,
Senior Lecturer, Department of Social and Humanitarian Sciences, Pedagogy and Psychology
Doctor of Philosophy (PhD) in History

**Abstract.** This article examines, from both historical and scholarly perspectives, the conflict situations that have arisen within Uzbekistan's interethnic relations. It also considers the establishment of national cultural centers, their role in promoting interethnic integration, the socio-cultural processes that unfolded during the period of independence, and the influence these national cultural centers exerted on the society's socio-political life in a historical context.

**Keywords**: national cultural centers; interethnic integration; socio-political life; Fergana events; national awakening; Kazakhs; Koreans; Armenians; Azerbaijanis; Tajiks; preservation of cultural heritage.

# O'ZBEKISTON MILLATLARARO MUNOSABATLARIDAGI ZIDDIYATLI VAZIYAT VA MILLIY MADANIY MARKAZLARNING TASHKIL QILINISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI

**Xusanov Xabibullo Xakimovich**
ADCHTI Ijtimoiy gumanitar fanlar, pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi
tarix fanlari falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda millatlararo munosabatlardagi ziddiyatli vaziyatlar tarixiy va ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilindi hamda milliy madaniy markazlarning tashkil etilishi, ularning millatlararo integratsiyada tutgan o'rni, mustaqillik davridagi ijtimoiy madaniy jarayonlar, milliy madaniy markazlarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'siri tarixiy kontekstda yoritildi.

**Kalit so'zlar:** milliy madaniy markazlar, millatlararo integratsiya, ijtimoiy-siyosiy hayot, Farg'ona voqealari, milliy uyg'onish, qozoq, koreys, arman, ozarbayjon, tojik, madaniy merosni asrab-avaylash.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI5Y2025N04

## KIRISH

O'zbekiston o'zining etnik jihatdan rang-barang tarkibi bilan ajralib turadi. XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida mamlakat hududida yashovchi millatlar o'rtasidagi munosabatlar tarixan qonuniy-ehtiyoj, siyosiy-iqtisodiy holatlar va ijtimoiy-ma'naviy jarayonlar ta'sirida shakllangan. Mustaqillikka erishganidan so'ng O'zbekiston hukumati millatlararo totuvlikni mustahkamlash, madaniy hamda etnik o'ziga xosliklarni rivojlantirish maqsadida bir qancha chora-tadbirlarni amalga oshirdi.

**TADQIQOT USULLARI**

Mazkur maqolani yozish jarayonida qiyosiy tahlil, muammo-xronologik, obyektivlik, tuzilmaviy-tizimli tahlil hamda ogʻzaki tarix kabi usullardan foydalanildi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMALAR**

1980-yillarning oxirlariga kelib Sovet Ittifoqida millatlararo munosabatlar murakkablashdi. Ayrim respublikalarda, jumladan, Oʻzbekistonda ham milliy uygʻonish jarayonlari kuchaydi. 1989-yil iyunida Fargʻona vodiysida yuz bergan Meskhet turklariga qarshi zoʻravonlik voqealari etnik ziddiyatlarning eng yirik namoyon boʻlgan holatlaridan biri sifatida tarixda qoldi. Rasmiy maʼlumotlarga koʻra, bu voqealarda kamida 97 kishi halok boʻldi va 1 mingdan ziyod shaxs jarohatlandi, 752 ta uy vayron qilindi[1] Ushbu voqealarning sabablari orasida iqtisodiy-ijtimoiy tang ahvol, aholi oʻrtasidagi resurslar uchun raqobat, ayniqsa, koʻchmas mulk va xizmatlarga boʻlgan talab oʻrtasidagi ziddiyatlar yotgan. Shuningdek, sovet propagandasining zaiflashishi, markaziy nazoratning pasayishi va mahalliy boshqaruv organlarining ziddiyatlarni vaqtida bartaraf etishda sustkashligi ham keskinlashuvni kuchaytirdi[2].

Yana bir muhim voqea 1990-yilgi Oʻsh toʻqnashuvi boʻlib, bu qirgʻiz-oʻzbek etnik kelib chiqmasi boʻyicha janubiy Qirgʻizistonda sodir boʻldi. Rasmiy maʼlumotlarga koʻra, oʻsha voqealarda 300–600 kishi halok boʻlgan, norasmiy maʼlumotlarga koʻra, qurbonlar soni 1 mingdan 10 minggacha yetgan[3]. Ushbu baxtsiz voqealar umumiy markaziy Osiyoda millatlararo munosabatlarning oʻta nozik va xavfli ekanini koʻrsatdi hamda butun mintaqada xavfsizlik va tinchlik masalalarini yanada dolzarb qildi. Oʻzbekiston hududidagi oʻsha davr voqealari mustaqillik yillaridagi ijtimoiy va siyosiy oʻzgarishlar oldidan ham muhim signal sifatida xizmat qildi.

Umumiy qilib aytganda, sobiq Ittifoqda millatlararo nizolar oqibatida birgina 1990-yilning oʻzida 782 kishi halok boʻldi, yaralanganlar soni esa 3617 kishini tashkil qildi. Tartibni saqlash kuchlari ham katta talafot koʻrdi. Ulardan fojiali halok boʻlganlar soni 77 nafar, yaralanganlar soni 548 kishiga yetdi[4. B.78]. Kommunistik mafkura tufayli barcha millat vakillari zarar koʻrdi. Bunday holat rus millatiga ham taalluqli boʻldi. Xususan, 1988-1991-yillardagi millatlararo munosabatlardagi keskinlik koʻp hollarda rus millatiga qarshi kayfiyat asosida yuz berdi. Buning oqibatida 1991-yilning oxiridan boshlab 25 million ruslar Ittifoqdagi boshqa respublikalardan oʻz yerlariga koʻchib ketishga majbur boʻldilar[5. B.29].

Oʻzbekistonda hal qilish oʻta zarur boʻlgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning miqyosi tobora ortib borib, milliy daromadning arzimagan darajada oʻsishi iqtisodiyotning nomutanosibligini uzluksiz ravishda keltirib chiqardi. Ishlab chiqarishning juda sust surʼatlari respublika uchun xos boʻlgan demografik jarayonlarga mos kelmay qoldi, bu esa oʻz navbatida ijtimoiy vaziyatni yanada keskinlashtirdi[6. B.38]. Aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan real daromadlar ancha pasayib ketdi. 1986-1989-yillarda aholi real daromadlarining yillik oʻrtacha oʻsish surʼati gʻoyatda past darajaga tushib qoldi, yaʼni bor-yoʻgʻi 0,3 foizni tashkil qildi[7]. Bu raqamlar respublika aholisining moddiy farovonligi anchadan buyon yaxshilanish oʻrniga tobora orqaga ketganligini yaqqol koʻrsatadi.

Bundan tashqari, Madaniy jabhada esa markaz koʻrsatmasiga muvofiq mahalliy aholini ruslashtirishga doir siyosat yuritildi. Respublikada aynan 1989-yilda ham mahalliy aholini ruslashtirishga boʻlgan jarayon kuchli edi. Buni quyidagi raqamlar orqali ham bilish mumkin.

Jumladan, 1990-yilda respublikadagi 1 219 ta maktabda 657 ming oʻquvchiga rus tilida taʼlim berildi (1989-yilda 590 ming edi), 2 297 ta bolalar bogʻchalarida tarbiya rus tilida olib borildi[8. B.62]. Barcha oliy oʻquv yurtlari va texnikumlarda rus tilida taʼlim beradigan boʻlimlar faoliyatda boʻldi, faqat pedagogika institutlarining oʻzidagina 185 ta mana shunday boʻlimlar mavjud edi[9. B.102]. Mazkur davr Oʻzbekistonda 27 ta gazeta rus tilida nashr qilindi, kitoblar va jurnallar chiqarildi. Respublika televideniyesi va radiosi orqali rus tilida telekoʻrsatuvlar va radioeshittirishlar berib borildi. Markaziy televideniyening birinchi dasturi respublikaga toʻla olib koʻrsatildi. 1989-yilning oʻzida Gʻafur Gʻulom nomli nashriyotda 462 bosma taboq hajmida 27 nomdagi badiiy adabiyot rus tilida salkam 2 million nusxada nashr qilindi[10. B.103]. Xususan, birgina 1990-yilda "Oʻqituvchi" nashriyotidan 4 ming bosma taboq kitob bosib chiqarildi, shundan rus tilidagi nashrlar hajmi 1200 bosma taboqni yoki bu koʻrsatkich 30 foizni tashkil qildi[11. B. 44]. Koʻrinib turibdiki, markazning bu saʼy-harakatlari eng avvalo mahalliy aholini ruslashtirishga qaratilgandi.

Barcha jabhalarda mustamlaka siyosati amal qilishi va milliy siyosat markaz qolipiga solinganligiga qaramay, Oʻzbekistonda Ittifoqning soʻnggi hukmronlik -yillarida milliy madaniy markazlar — maydonga chiqdi. Ularning faoliyat koʻrsatishi kommunistik madaniyatga muvofiq kelishi kerak edi, markazlar yuqoridan belgilab berilgan qoidalarga asosan faoliyat yuritdi. Shunday boʻlishidan qatʼiy nazar respublikada faoliyati yoʻlga qoʻyilgan milliy madaniyat markazlarining eng faollaridan biri sifatida koreys markazini taʼkidlab oʻtish maqsadga muvofiq. Mazkur markaz tashkil etilishiga doir saʼy-harakatlar toʻlqini 1988-yildan avj oldi. 1989-yilning sentyabrida Toshkentda shahar xalq deputatlari ijroiya komiteti tashabbusi bilan oʻzbekistonlik koreyslar Toshkent shahar konferensiyasini tashkil etish boʻyicha tashabbuskor guruhlar maydonga chiqdi[12. B. 144]. 1989-yilning sentyabridan 1990-yilning yanvarigacha Toshkent shahar koreyslari konferensiyasini tashkil etish boʻyicha doimiy ravishda ish olib borildi, shaharning 7 ta tumanida shahar konferensiyasiga delegatlar saylandi. Aynan 1989-yilda Madaniyat vazirligi qoshida mamlakat millatlararo Madaniyat Markazi tashkil etildi. Uning tarkibida 12 ta markaz, jumladan, Qozoq, Koreys, Arman, Ozarbayjon, Tojik madaniyat markazlari faoliyat koʻrsata boshladi[13.B.242].

Tashkil etilgan Milliy madaniy markazlar birinchi navbatda quyidagi vazifalarni bajarishi koʻzda tutilgan:

- Madaniy merosni asrab-avaylash va saqlash.
- Bilim va maʼrifat tarqatish.
- Madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish.
- Ijtimoiy integratsiya va toqatni kuchaytirish.

Milliy madaniy markazlar birinchi navbatda etnik guruhlar oʻrtasida oʻzaro bagʻrikenglik va hurmat muhitini rivojlantirishga hissa qoʻshadi. Masalan, Namangan viloyatidagi qirgʻiz madaniy markazi qishloqlarda fuqarolarni birlashtirgan sport musobaqalari va oʻzbek, qirgʻiz va boshqa millatlarning toʻqimachiligi va musiqa sanʼati boʻyicha tanlovlarni tashkil etadi. Bunday tadbirlar mahalliy aholi orasida bir-birini yaxshiroq tushunish, ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash tarmoqlarini kengaytirish imkonini beradi.

Iqtisodiy qiyinchiliklar, ayniqsa, ishsizlik va kambagʻallik darajasi oshganda, ziddiyatlar kuchayishi mumkin. Shu boisdan madaniy markazlar oʻz loyihalarida ijtimoiy tadbirlar, xayriya aksiyalari, biznes-yoʻnalishli seminarlarni ham kiritadi. Masalan, joriy yilda Xorazm viloyatida boʻlib oʻtgan "Millatlar totuvligi" loyihasi doirasida mahalliy tadbirkorlar va madaniy tadbirlar

ishtirokchilari oʻrtasida kichik grantlar va stipendiyalar taqsimlandi, bu esa mahalliy aholining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirdi. Natijada ziddiyatlar kamaydi va ijtimoiy barqarorlik mustahkamlandi.

Milliy madaniy markazlardan tashqari, respublika boʻylab 38 doʻstlik jamiyatlari faoliyat yuritadi. Ularning maqsadi tijorat va siyosiy-strategik yoʻnalishda hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, xorijiy mamlakatlardagi vatandoshlar bilan uzviy aloqalar oʻrnatishdir. Doʻstlik jamiyatlari Oʻzbekiston hukumati bilan hamkorlikda xalq diplomatiyasi loyihalarini amalga oshiradi, bu esa global miqyosda mamlakatning ijobiy imijini oshirishga hissa qoʻshadi[14].

2017-yil 19-maydagi PF-5046-sonli Prezident farmoniga muvofiq “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan doʻstlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” hujjati qabul qilindi. Unda yagona davlat siyosatini amalga oshirish, vakolatli organni kuchaytirish va jamiyatda totuvlikni saqlash, diniy bagʻrikenglikni taʼminlash boʻyicha amaliy chora-tadbirlar belgilandi[15]. Shu orqali madaniy markazlar va doʻstlik jamiyatlari qatorida siyosiy hamkorlik tizimi ham kuchaytirildi.

**XULOSALAR**

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz uchun millatlararo munosabatlarning barqarorligi milliy mustaqillikning muhim omillaridan biridir. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida Oʻzbekistonda yuz bergan ziddiyatli vaziyatlar, xususan, Fargʻona voqeasi va atrof mintaqalardagi toʻqnashuvlar millatlararo totuvlik zaruratini yana bir bor koʻrsatdi tarixiy tajribalardan kelib chiqib, mustaqillik yillarida mamlakatimiz hukumati millatlararo doʻstlik va totuvlikni saqlashga qaratilgan kompleks siyosatni amalga oshirdi.

Milliy madaniy markazlarning tashkil etilishi va rivojlanishi bu siyosatning asosiy elementlaridan biridir. 1989-yilda ilk markazlar tashkil etilganidan soʻng Respublika baynalmilal madaniyat markazlari tugʻilishi bilan madaniy markazlar tarmogʻi davlat miqyosida muvofiqlashtirila boshlandi. Bugungi kunga kelib, jami 150 ta milliy madaniy markaz, 38 ta doʻstlik jamiyatlari mamlakat boʻylab faoliyat yuritmoqda.

Ushbu markazlar madaniy merosni asrab-avaylash, til va adabiyot sohasida taʼlim berish, ijtimoiy rang-baranglikni qoʻllab-quvvatlash hamda interfaol kommunikatsiya mexanizmlarini yaratish orqali millatlararo totuvlikni mustahkamlaydi. Shu bilan birga ular ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash, iqtisodiy koʻmak, turizm va biznes hamkorlikni rivojlantirishga koʻmaklashadi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. https://en.wikipedia.org/wiki/Fergana_massacre
2. Michael Dobbs. Central Asian Violence spurs Russian Exodus / The Washington Post. November 2, 1990. –P.23.
3. https://en.wikipedia.org/wiki/1990_Osh_clashes
4. Иброҳимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – Б.78.
5. Мусаев О.Р. Ўзбекистон Республикасида миллатлараро муносабатлар (1991-1997 йиллар): Тарих фан.номз. ... дисс.-Тошкент, 2000. – Б.26.
6. Oʻz R PAA FVB, 1-fond, 301-roʻyxat, 205-yigʻmajild, 38-varaq.
7. Республика партия-хўжалик фаоллари йиғилиши / Совет Ўзбекистони, 1989 йил 16 июнь.
8. Oʻz MA, R.2454-fond, 4- roʻyxat, 4543-yigʻmajild, 62-varaq.
9. Oʻz MA, R.2454-fond, 4- roʻyxat, 4543-yigʻmajild, 102-varaq.

10. Oʻz MA, R.2454-fond, 4- roʻyxat, 4543-yigʻmajild, 103-varaq.
11. Абдуллаев Б.Х. Рус тилидаги нашрлар сони ортди // Инсон ва сиёсат. – Тошкент, 1991. – №1. –Б.44.
12. Oʻz MA, R.2454-fond, 4- roʻyxat, 4543-yigʻmajild, 144-varaq.
13. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2000. –Б.242.
14. In Uzbekistan, strengthening interethnic and interfaith solidarity is always a priority of state policy - The Asia Today
15. https://lex.uz/uz/docs/-3210345

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/5 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).